

TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR QO'LLANILISHINING AHAMIYATI

Abdisalomova Sanobar Nurali qizi

Fizika va astronomiya ta'lim yo'nalishi talabasi

Navoiy davlat pedagogika instituti

Ilmiy rahbar: t.f.d. (DSc), dots. D.I.Kamalova

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7443553>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalar qo'llanilishining ahamiyati yoritilgan. Pedagogik texnologiyaning metodologik asoslari, umumiy metodologiyaning asosiy tamoyillari tizimida yangi hodisa sifatida uni dialektik mantiq va bilish nazariyasining kategoriya va tamoyillari tizimidagi evristik imkoniyatlar darajasiga olib chiqishi ifodalangan.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, texnologiya, pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalar, pedagogik mahorat.*

ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

***Аннотация.** В данной статье подчеркивается важность использования педагогических технологий в системе образования. Она выражается как новое явление в системе методологических основ педагогической технологии, основных принципов общей методологии, выводя ее на уровень эвристических возможностей в системе категорий и принципов диалектической логики и теории познания.*

***Ключевые слова:** образовательная система, технология, педагогические технологии, информационные технологии, педагогическое мастерство.*

THE IMPORTANCE OF USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM

***Abstract.** This article emphasizes the importance of using pedagogical technologies in the education system. It is expressed as a new phenomenon in the system of methodological foundations of pedagogical technology, the basic principles of general methodology, bringing it to the level of heuristic possibilities in the system of categories and principles of dialectical logic and theory of knowledge.*

***Keywords:** educational system, technology, pedagogical technologies, information technologies, pedagogical skills.*

Ma'lumki, XX asr kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixidan fan va texnika sohasida yuz bergan inqiloblar davri sifatida joy olgan. Ilm-fan va texnika rivojining yuksak sur'ati moddiy ishlab chiqarish jarayonini nazariy (g'oyaviy) hamda amaliy jihatdan boyitib borish bilan birga ijtimoiy munosabatlarning yangicha mazmun kasb etishini ta'minladi. Xizmat ko'rsatish sohalarining paydo bo'lish, yangicha turmush tarzi kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining ortib borishiga zamin hozirladi. Ijtimoiy ehtiyojlarning yangilanib ortib borishi o'z navbatida ularning qisqa muddatda va sifatli qondirilishini ta'min etuvchi faoliyatning yo'lga qo'yilishini taqozo etadi.

Ijtimoiy zarurat mahsuli bo'lgan texnologiya sohasi va uning takomillashib borishi qisqa vaqt oralig'ida kam jismoniy kuch sarflagan holda yuksak sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkonini berdi. Moddiy ishlab chiqarish, xom ashyoni qayta ishlash sohalarida mahsulot ishlab

chiqarish jarayonini tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuv yuzaga keldi. Moddiy ishlab chiqarish sohaslarida ilg'or texnologiyalarni qo'llash shartlaridan biri malakali mutaxassislarni tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirib borishiga erishishdan iborat.

Ta'lim tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida G'arbiy Yevropa hamda AQShda o'rtaga tashlangan edi. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasining shakllanishi uzoq muddatli vaqt oralig'ida kechdi. Ta'lim texnologiyasi muammolarini tadqiq etuvchi tashkilotlar tuzildi, maxsus jurnallar tashkil etildi. Tuzilgan tashkilot hamda ilmiy jurnallar faoliyatining asosiy mazmuni ta'lim texnologiyasi muammolari bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar mazmuni va natijalarini umumlashtirib, tahlil etib borish, shuningdek, ushbu tadqiqotlar natijalarining tahlili asosida muayyan tavsiyalarni ishlab chiqish, eng samarali tadqiqotlarni esa ommalashtirishdan iborat bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim texnologiyasining mohiyati, uning yutuqlari bilan ta'lim sohasi xodimlarini xabardor etib borish, ularning bu boradagi malakalarini oshirishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish ham ta'lim texnologiyasi muammolarini tadqiq etuvchi tashkilotlar zimmasidadir. O'zbekiston Respublikasida ta'lim texnologiyalari bo'yicha anchagina tajribalar to'planayotgan bo'lsa-da, qator muammolar ham mavjud. Ta'lim tizimiga pedagogik texnologiyalarni samarali joriy etish yo'lidagi muammolar quyidagilardan iborat:

- Ta'lim texnologiyasi g'oyalarining ta'lim jarayoniga to'laqonli tatbiq etilishi uchun mintaqaviy ichki imkoniyatlarni puxta o'rganish;
- Barcha turdagi ta'lim muassasalarining pedagog xodimlarini qayta tayyorlash, ularning ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish malakalarini oshirish;
- Xususiy fanlarning o'qitilishi jarayoniga ilg'or texnologiyalarni joriy etish choralarini belgilash, zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- Nazariyaning yagona nom bilan nomlanishiga erishish (pedagoglar o'rtasida muayyan tushunmovchiliklar paydo bo'lmoqda);
- Ta'lim subyektlarining texnikaviy savodxonligiga erishish;
- Tezkor axborot xizmatini yo'lga qo'yish;
- Pedagogik jarayonning demokratlashuv va insonparvarlashuviga erishish;
- O'quvchining individuallashtirishiga alohida ahamiyat berish;

Ta'limning bugungi vazifasi talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Pedagogik texnologiyaning metodologik asoslari, umumiy metodologiyaning asosiy tamoyillari tizimida yangi hodisa sifatida uni dialektik mantiq va bilish nazariyasining kategoriya va tamoyillari tizimidagi evristik imkoniyatlar darajasiga olib chiqadi.

Tamoyillar tizimi nazariy metodologik bazis sifatida namoyon bo'lib, mazkur bazis asosida pedagogik texnologiyaning konseptual modelini qurish imkoniyatlari aniqlanadi. Ta'lim majmuining konseptual tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

- Har qanday texnologiya negizida mehnat faoliyati ko'rinishidagi o'zaro jamoaviy ta'sir yotadi;
- Texnologiya mehnat jarayonining o'ziga singdiriladi;
- Pedagogik texnologiyaning pedagogik jarayonni amalga oshirish shakli sifatidagi mohiyati pedagogik faoliyat sohasida namoyon bo'ladi;
- Insonning ongi jamoaviy o'zaro ta'sir inikosining ideal shakli hamda dialektik qarama-qarshiligini ifoda etib, o'zgartirilgan mehnat sifatida namoyon bo'ladi;

- Pedagogik texnologiya pedagogik amaliyotda namoyon bo'ladi;

Pedagogik texnologiya ijtimoiy texnologiyadan ajralib chiqib, o'z taraqqiyotida shartli jamoaviy repetitsiyaviy (mashqlantiruvchi) refleks bosqichini bosib o'tgan holda, asosiy texnologik o'zaro ta'sirlarni maqsadga muvofiq tarzda takrorlovchi harakat va operatsiyalar tizimiga ajratadi. Bundan kuzatilgan asosiy maqsad – ijtimoiy ongini mustahkamlash va to'plangan tajribani yangi avlodlarga yetkazishdan iborat bo'lib, uning predmeti esa ideallashtirilgan tavsifga ega.

Pedagogik texnologiya mohiyatining umumiy jihatlari, shakl va mazmuni, qarama-qarshiliklar tizimi, miqdoriy va sifat o'zgarishlari dialektikasi, qurilishi, amal qilishi va rivojlanishining umumiy qonun va qonuniyatlari texnologiyaning umumfalsafiy konsepsiyasi doirasida muvaffaqiyatli ravishda ko'rib chiqilishi mumkin. Uning harakati mantiqiy va moddiy ishlab chiqarish sohasidagi yuqorida ko'rib chiqilgan qonuniyatlari, uning dialektik qarama-qarshi jihati bo'lgan ma'naviy ishlab chiqarish, shuningdek, ta'lim sohasi qonuniyatlarini ko'chirish jarayonini aks ettirishdan iborat.

Pedagogik texnologiya nazariy negizga ega, zero asl texnologiya o'zining mustahkam ilmiy-nazariy poydevoriga asoslanadi. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Shu sababli, ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish, aniq vazifalarni qo'ygan holda, dars mashg'ulotlarining usul va vositalarini to'g'ri tanlash orqali shaxsning intellektual salohiyati va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, jamiyatdagi har bir fuqaroning bilim va malakasini oshirish, tezkor ta'lim uchun shart-sharoit yaratish mumkin.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-4884 son qarori. Toshkent. 6-noyabr. 2020.
2. Камалов И.Р., Камалова Д.И. «Астрономия фанини ўқитишда инновацион педагогик технологияларни қўллаш» электрон ўқув қўлланмаси учун ЭХМ дастур. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги Интеллектуал мулк агентлиги. №DGU 06406. 15.05.2019.